

## MALALA YUSUFZAY VA XOLID HUSAYNIY ASARLARIDA BADIY PSIXOLOGIZM HAMDA AYOL QAHRAMONLAR PERSPEKTIVASI

*Ollaberganova Dilnoz Qodirberganovna, O'zbekiston davlat jahon  
tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi*

## PERSPECTIVE OF ARTISTIC PSYCHOLOGISM AND FEMALE CHARACTERS IN THE WORKS OF MALALA YUSUFZAI AND KHALID HUSSAINI

*Ollaberganova Dilnoz Kadirberganovna, Independent  
student of Uzbekistan State University of World Languages*

## ПЕРСПЕКТИВА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПСИХОЛОГИЗМА И ЖЕНСКИХ ХАРАКТЕРОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ МАЛАЛЫ ЮСУФЗАЙ И ХАЛИДА ХУСАЙНИ

*Оллаберганова Дилноз Кадырбергановна, независимый  
исследователь Узбекского государственного университета  
мировых языков*



[https://orcid.org/  
0009-0002-2826-6786](https://orcid.org/0009-0002-2826-6786)

e-mail:  
[ollaberganovadilnoza88@  
gmail.com](mailto:ollaberganovadilnoza88@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada diaspora adabiyoti, ayniqsa Osiyo-Amerika diaspora adabiyotida ayol qahramonlar perspektivasi va ularning xususiyatlari atroflicha yoritilgan. Jumladan, Malala Yusufzay va Xolid Husayniy asarlari tahlilga tortilgan hamda u yerdagi ayol qahramonlar ichki dunyosi badiiy psixologizm vositalari yordamida ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** diaspora, adabiyot, diaspora adabiyoti, badiiy psixologizm, ayol, perspektiva.

**Abstract:** in this article, diaspora literature, especially the perspective of female characters in Asian-American diaspora literature, and their characteristics are comprehensively covered. In particular, the works of Malala Yousafzai and Khaled Hosseini were analyzed and the inner world of the female characters was revealed using the tools of artistic psychology.

**Key words:** diaspora, literature, diaspora literature, artistic psychology, woman, perspective.

**Аннотация:** В этой статье всесторонне освещена литература диаспоры, особенно взгляд на женские персонажи в литературе азиатско-американской диаспоры, а также их характеристики. В частности, были проанализированы произведения Малалы Юсуфзай и Халида Хусайни, а также раскрыт внутренний мир женских персонажей с помощью инструментов художественной психологии.

**Ключевые слова:** диаспора, литература, литература диаспоры, художественная психология, женщина, перспектива.

**KIRISH.** Badiiy asardagi ayol qahramonlarni psixologik metod yordamida tahliliy o'rganish zarurati diaspora adabiyotida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu insonning ma'naviy

olami, dunyoqarashi, tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni kashf etishda muhimdir. Diaspora yozuvchilari o'z asarlariga qahramonlar, personajlar va hayotiy unsurlarni tanlab olar ekan, bundan

hamisha ma'lum bir maqsadni ko'zlagan bo'lishadi. Shu boisdan ular badiiy olamga olib kirayotgan har bir obrazlariga ma'lum bir ma'noni yuklab, o'ziga xos sifatlar bilan tasvirlashadi, o'sha ma'no doirasida badiiy maqsadga muvofiq tarzda tilga kiritishadi va harakatlantirishadi. Buni zamonaviy Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa diasporasi adabiyotining ikki vakili – Xolid Husayniy va Malala Yusufzay asarlari misolida ko'rishimiz mumkin.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.**

Badiiy psixologizmning xususiyat va tamoyillarini aniqlashtirib olish va ularni boyitish badiiy asarlar yaralish qonuniyatlarini tadqiq etishda qo'l keladi. Adabiyotshunoslar roman janrini insonni yanada teranroq va yorqinroq ochib beradigan janr sifatida qabul qilish bilan bir qatorda janriy imkoniyatlarni kengaytirishda yetakchi vosita rolini o'ynayotgan psixologizmga ham yuksak baho berishadi. Jahon adabiyotida J.Bokachcho, M.de Servantes, U.Shekspir, A.Pushkin, M.Lermontov, F.Dostoyevskiy, L.Tolstoy, Ch.Aytmatov asarlarida badiiy psixologizm yuqori mahorat bilan qo'llanilgan bo'lsa, diaspora yozuvchilari K.Isiguro, E.Tan, X.Husayniy, M.Yusufzay romanlarida ham badiiy psixologizm yozuvchi konsepsiyasini ochib berishda talqin uslubi sifatida keng namoyon bo'ladi. Bu esa diaspora romani tadrijida psixologizm alohida ahamiyatga ega ekanligini namoyish etadi.

Bugungi kunda badiiy asarlar tahlili va tadqiqida tobora dolzarflik kasb etib borayotgan "psixologizm" atamasi fanga rus adabiyotshunos olimi Mixail Baxtin tomonidan kiritilgan bo'lsa ham uning birinchi marotaba qo'llanilishi XIX asr nemis faylasuflari Y.Friz (1773-1843) va F.Benekening (1798-1854) ilmiy asarlarida uchraydi. Mazkur atamaning tub mohiyatini anglash uchun adabiyotshunoslik fanining o'zi kamlik qiladi va unga yondosh bo'lgan bir nechta sohalar, shu jumladan, ruhiyat ilmi, falsafa, estetika fanlari bo'yicha ham chuqurroq bilim bo'lishi talab etiladi. Psixologizm mantiq faniga yondashuvlardan biri sifatida vujudga kelgan. Mantiq fanining asosini

tashkil etuvchi mantiq tushunchasini psixologik nuqtai nazar orqali izohlash mobaynida ushbu olimlar psixologizmga murojaat qilishgan<sup>1</sup>. Vaqt o'tishi bilan psixologizm atamasining qamrovi kengayib, ilm-fanning boshqa sohalarini, shu jumladan, adabiyotshunoslikda ham keng tarqala boshlagan. Adabiyotshunoslikning butun boshli tarixi mobaynida yozuvchilar psixologizmga badiiy san'atning metodlaridan biri sifatida bir necha bor murojaat qilishgan.

Tadqiqotimizda so'z yuritilayotgan Xolid Husayniy va Malala Yusufzayning ijod mahsullarida badiiy psixologizmning *qahramonning ichki monologi* shaklidan keng foydalaniladi. "Mariam wished for so much in those final moments. Yet as she closed her eyes, it was not regret any longer but a sensation of abundant peace that washed over her. She thought of her entry into this world, the harami child of a lowly villager, an unintended thing, a pitiable, regrettable accident. A weed. And yet she was leaving the world as a woman who had loved and been loved back. She was leaving it as a friend, a companion, a guardian. A mother. A person of consequence at last. No. It was not so bad, Mariam thought, that she should die this way. Not so bad. This was a legitimate end to a life of illegitimate beginnings"<sup>2</sup>

**MUHOKAMA.** Psixologik tahlil metodiga yondashgan holda o'quvchining ko'z oldida insonning ruhiy-ma'naviy olami namoyon bo'ladi. Ikkala muallif ham o'z qahramonlarining psixologik portretini yaratish asnosida ularning ruhiy holati orqali butun xatti-harakatlarining mantig'ini chiqaradi, ularning ichki dunyosini badiiy vositalar yordamida tasvirlaydi. Ularning romanlari diaspora, begona yurtga, begona jamiyatga ko'nikish muammolari bilan bir qatorda tobora qadrsizlanib borayotgan ayollarning ijtimoiy maqomini yuksaltirish, ularning ta'lim olishi, shaxsiy rivojlanishiga imkon yaratib berish maqsadini qamrab oladi.

Umuman, badiiy adabiyot va ruhiyatni o'rganuvchi fan bo'lmish psixologiya bir-biri bilan

<sup>1</sup> Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы: Кн. для учителя / А.Б.Есин. – М.: Просвещение, 1988. – С. 17-21.

<sup>2</sup> "Mariyam ko'zlarini yumdi. Birdan hamma iztiroblar chekinib, qalbini allaqanday sokinlik, hatto xotirjamlik egallab oldi. U dunyoga bir begona alaf singari, ota-onasining

xohishiga qarshi o'laroq, haromi tamg'asi bilan kelgandi. Mana, yerdagi safari ham qaridi. U ham sevdi, sevildi, kimningdir koriga yaradi, himoyachi, dugona, ona bo'la oldi. Undan shirin xotiralar qoladi".

Husayniy X. Ming quyosh shu'lasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 243-b.

uzviy bog‘liq sanaladi. Badiiy asarga unga bevosita aloqador har ikkala tomon, ya’ni uni yaratuvchi – ijodkor yozuvchi va badiiy asar o‘quvchisi nuqtayi nazaridan qaralgan taqdirda ham ruhiyatshunoslikning adabiyotda o‘ynaydigan roli nihoyatda ahamiyatli ekanligi inkor etib bo‘lmas haqiqatdir. Aynan ruhiy olam yozuvchi va kitobxonni birlashtiruvchi rishta vazifasini bajaradi, chunki yozuvchi nafaqat jamiyatdan ta’sirlanib qo‘liga qalam oladigan, balki o‘z ijod mahsuli orqali unga bevosita ta’sir ham o‘tkaza oladigan shaxsdir.

Dunyo jamiyatlarida tobora oshib borayotgan rollari tufayli ayollar hamisha zamonaviy adabiyotning ajralmas bo‘lagi bo‘lib kelishgan. Diaspora adabiyotshunosligidagi badiiy psixologizmning asosiy yo‘nalishi personajning ichki dunyosini ochib berish vositalari va yo‘llarini izlash bilan bevosita bog‘liq. Shunga monand ravishda romanlariga qator badiiy yangiliklar olib kirgan afg‘on-amerikalik va pokiston-ingliz yozuvchilari Xolid Husayniy va Malala Yusufzaylarning diaspora adabiyoti badiiy psixologizmi rivojiga qo‘shgan hissasi alohida e’tirofqa loyiqdir. Ular vatanidan ketishga majbur bo‘lgan ayol qahramonlarda oldingi “men”ning tanazzulga yuz tutishi, shaxsiyatning o‘zgarishi singari ruhiyat bilan bog‘liq mavzularda ko‘plab badiiy asarlar yozishgan. “Ming quyosh shu‘lasi”, “Tog‘lar ham sado beradi”, “Men Malalaman”, “Vatanidan ayrolarmiz” romanlari shular jumlasidandir. Ayol obrazining diaspora adabiyotida aks etishi, uning musulmon jamiyatidagi ijtimoiy mavqeyi u yashagan tarixiy davr bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

**NATIJALAR.** Amerika, Britaniya va Kanadadagi zamonaviy Afg‘oniston va Pokiston diasporasi adabiyoti namunalarini patriarxal tizim va gender notengligi negiziga qurilgan ikki jamiyatning haqiqiy manzarasini ochib beradi. Yangi avlod, ayniqsa, ayollar ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotda tub o‘zgarishlar bo‘lishini yoqlab, kurash olib borishi tasvirlari ikkala muallifning asarlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Itoatkor va qarshilik bildirishni bilmaydigan pushtun va afg‘on ayollari toki gender tengligi va ayollarga nisbatan adolatli

munosabatda bo‘lishga erishish orqali jamiyatdagi illatlarga yechim topilmas ekan, uchinchi dunyo erkak va ayollarining hayoti va dunyoqarashida, ijtimoiy maqomida ijobiy o‘zgarishlar yuz berishi sarobligicha qolishini chuqur tushunib yetishmoqda. Xolid Husayniy va Malala kabi o‘qimishli, bilimli va olamda kechayotgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlardan boxabar diaspora vakillari yoshlar, xususan, qizlar orasida o‘z huquqlarini talab qila olishlari, jamiyat va davlat rivojida hissa qo‘sha olishlari uchun yangicha g‘oyalarni o‘z nutqlari va asarlari orqali yoyishda faol ishtirok etmoqdalar. Shu bois ham Husayniy va Malala ayol-qizlarning dardlari hamda ular duch kelayotgan qiyinchiliklarni qalamga olib, badiiyat orqali hayotiy muammolarni ochib berishga intiladi, ularni o‘z qadr-qimmatini, huquq va erkinliklari uchun kurashga ruhlantirib, hamkorlik muhitini yaratishadi.

Har ikkala yozuvchining asarlarida Afg‘oniston, ayollik, oila va bolalik perspektivalari yetakchilik qiladi. “Perspektiva” (lot. perspicere) so‘zi lotin tilidan fransuz tiliga kirib kelgan bo‘lib, “ich-ichidan ko‘rmoq”, “sinchiklab qaramoq” degan ma’nolarni anglatadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida keltirilishicha, perspektiva so‘zi kelajakdan kutilgan yoki kelajakda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan maqsad, niyat, reja va shuningdek kuzatish nuqtasidan uzoqlik darajasiga ko‘ra haqiqatda qanday ko‘rinsa, shunday tasavvur beradigan tasviri<sup>3</sup> ma’nolarini anglatadi.

1. Adabiyotshunoslik ilmida<sup>4</sup> adabiy-badiiy perspektivalarning quyidagi turlari<sup>5</sup> mavjud:

1) prototip perspektiva asosan badiiy adabiyotda mavjud an‘analardan foydalangan holda, takror qo‘llaniladigan mavzular: boy va kambag‘al juftlik muhabbati, janglardagi mardona kurash; prototip tasvirlar: jannat va do‘zax, kimsasiz orollar va prototip obrazlar: ijobiy va salbiy qahramonlar ishtirok etuvchi romanlar mohiyatini o‘rganadi;

2) formalist perspektiva o‘z nomidan adabiyotning shakl bilan ishlovchi perspektivasi bo‘lib, asosan she’riy asarlarda qo‘llaniladi. Sharq g‘azallari va G‘arb sonetlariga xos shakli va ritmik jozibadorlik mazkur perspektivaning asosini tashkil qiladi;

<sup>3</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси". Давлат илмий нашриёти. – Тошкент, 2007. – 687 б.

<sup>4</sup> Magali Sperlina, Beck (Jan./Apr., 2017). “Current Critical Perspectives in Literature, Film, and Cultural Studies. Desterro. Vol. 70. №1.

<sup>5</sup> www.afghanmagazine.com

3) psixoanalitik perspektiva asar qahramonlarining ichki dunyosini taftish qilishga qaratilgan perspektiva bo'lib, ushbu yo'nalish namoyondalari dialoglardan ko'ra monologlar qahramonning individual olamini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblashadi. Shuningdek, ongsizlik va ong osti oqimi psixoanalitik perspektivaning eng muhim darajalari hisoblanadi;

4) ijtimoiy sinf perspektivasi asarlarning badiiylik xususiyatini cheklovchi hodisa bo'lib, ushbu oqim tarafdorlarining fikricha, bir asarning o'zi har xil sinf vakillari tomonidan jamiyatdagi mavqeyiga ko'ra turlicha qabul qilinishi mumkin;

5) gender (jinslarga asoslangan) perspektiva tom ma'noda ijtimoiy-sinf perspektivasiga yaqin bo'lib, adabiyotning erkak va ayollar o'rtasida farqli jihatlariga ko'ra tahlil va tanqid qilinishi bilan shug'ullanadi;

6) tarixiylik perspektivasi asarning tarixiylik prinsipi bilan ishlovchi metod bo'lib, tasvirlangan real voqelikning real zamon va makonning uyg'unlikda aks etishini tahlil qiladi hamda asarlarning xususiyatiga ko'ra, ularni real yoki badiiy zamon va makonlarga ajratib guruhlaydi. Xolid Husayniy o'z asarlarida tarixiylik perspektivasining barcha turlaridan foydalanib, Afg'oniston va diasporadagi afg'onlar yashayotgan makonlarni, Tolibonlar davridan oldingi, Tolibonlar davri va Tolibonlardan keyingi davrlarda badiiy bo'yoqdorlik vositasida tasvirlaydi.

Tadqiqotimiz obyekti hisoblangan asarlarni yuqorida sanab o'tilgan perspektiva turlari asosida tahlilga tortadigan bo'lsak, ushbu asarlarda psixoanalitik perspektiva, gender (jinslarga asoslangan) perspektiva, tarixiylik perspektivalari ustuvorlik qilishini ko'rishimiz mumkin.

**XULOSA.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, har ikkala yozuvchining asarlaridagi badiiy qahramonlari orqali Husayniy afg'on ayollarining,

Malala Yusufzay esa Pokiston ayollarining bosma qoliqlar iskanjasidan tashqaridagi hayotga nisbatan munosabatidagi tub o'zgarishlarni ifodalaydi va o'z navbatida afg'on va Pokiston ayollari haqida global axborot vositalarida shakllangan "jabrdiyda", "ikkinchi darajali", "qadrsiz" singari bir yoqlama tasavvurni parchalashning uddasidan chiqadi. Har ikkala yozuvchining ayol qahramonlari turli xil ko'rinishlardagi zulm, shafqatsizlik, itoatkorlik girdobida qolib, azob chekayotgan va nihoyat tanalari va ruhlari ustidan o'rnatilgan ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-siyosiy hukmronlik va zulmga asoslangan nazoratdan xalos bo'lishadi. Xolid Husayniy va Malala Yusufzay ularni nafaqat zulm va qadrsizlikdan qutulishda yordam beruvchi, balki boshqa ayollar uchun ham kurashish uchun o'zlarida iroda va shijoat topuvchi isyonkor va itoatsiz tabiatga ega insonlar sifatida tasvirlaydi. Ayollarning azob-uqubatlari mamlakatning hozirgi ahvoriga, asosan, urush davri va undan keyin o'rnatilgan rejimga bog'liq ekanligi ta'kidlab ko'rsatiladi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Husayniy X. "Ming quyosh shu'lasini". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 288-bet
2. Husayniy X. "Shamol ortidan yugurib". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 208-b.
3. Husayniy X. "Tog'lar ham sado berdi". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 240-b.
4. Ruzmatova D.R. Xolid Husayniy asarlarining badiiy o'ziga xosligi: F.f.f.d. diss. – Toshkent, 2020. – 146 b.
5. Sodiqova T. "Yashash tilsimi". Toshkent: G'ofur G'ulom nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2009. 19-b.
6. Yousafzai M. "We are displaced", London, Weidenfeld & Nicolson., 2021. – 5 p.
7. Yusufzay M. "Men Malalaman", Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. 384-b.

